



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

KO‘Z SOMATIZMI ISHTIROKIDAGI O‘ZBEK XALQIGA XOS PARALINGVIZMLAR TADQIQI

STUDY OF PARALINGUISTICS SPECIFIC TO THE UZBEK PEOPLE WITH THE PARTICIPATION OF EYE SOMATISM

Majidova Maftuna Samad qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: maftunamajidova98@mail.ru

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./UPDB3997](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./UPDB3997)

Annotatsiya. *ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida okulesika tarmog‘ining kichik bir yo‘nalishi sifatida ko‘z harakatlarini tadqiq etish masalasida bir qator fikrlar ilgari suriladi. Xususan, ko‘z uzvi doirasida vujudga keluvchi o‘zbekona paralingvizmlar tadqiq etiladi. Paralingvizmlarga izohlar beriladi va har bir paralingvizm uchun badiiy asarlardan parchalar keltirish orqali fikrlar dadillanadi.*

Kalit so‘zlar: *okulesika, ko‘z tikish, ko‘z suzish, ko‘z qisish, ko‘z qirini tashlash, tikilish, ko‘z bilan kuzatish.*

Annotation. *This article puts forward a number of ideas on the study of eye movements, a small area of the oculetics branch of Uzbek linguistics. Uzbek-specific paralinguistics that arise within the framework of the eye are studied. Paralinguistics are explained and each paralinguistic is illustrated with examples by fictional books.*

Keywords: *oculesics, eye gaze, eye swimming, wink, eye twitch, stare, eye observation*

Okulesika – insonning ko‘z harakatlari, qarash yo‘nalishi, ko‘z bilan kontakt qilish darajasi, miltillashi, qamashishi va ko‘z qorachig‘ining kengayishi kabi jihatlar orqali muloqotda axborot yetkazishni o‘rganuvchi kinesikaning alohida bo‘limidir.

Okulesikaning kinesika tarkibida emas, balki alohida soha sifatida ajralib chiqishida psixolog Pol Ekmaning izlanishlari alohida ahamiyatga molikdir. U aynan ko‘z orqali muloqotning yuzaga chiqishi mavzusi doirasida 100 dan ortiq ilmiy maqolalar va 10 dan ortiq ilmiy asarlar muallifidir.

Pol Ekman ko‘z harakatlari va boshqa yuz ifodalari o‘rtasidagi bog‘liqlarni aniqlash, travmatik hodisalarni esga olganda ko‘zlardagi jismoniy o‘zgarishlarni tavsiflash ustida ish olib borgan va “Dyuchen tabassumi” atamasini fanga olib kiradi. Bu atama samimiy tabassum paytidagi ko‘zda yuz beradigan noixtiyoriy “chaqnash” (ko‘z qorachig‘ining kengayishi nazarda tutilgan) ma’nosida qo‘llaniladi.

O'zbek tilshunosligida ham okulesika tadqiqiga bag'ishlab qator ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yosh tilshunos olim To'liyeva Shoira “O'zbek tilshunosligida ko'z komponentli ayrim somatik frazemalarning paradigmatic xususiyatlari” [To'liyeva, 23-26] maqolasida okulesik bir qator birliklar ishtirokidagi iboralar saralab olinib, ma'noviy va vazifaviy jihatlari chuqur tadqiq etiladi.

Ko'z harakatlariga e'tibor qaratish – ko'z qorachig'ining ixtiyoriy yoki noixtyoriy harakatlari, diqqatni o'zgartirish, ko'z bilan obyektlarni kuzatish, ko'z yo'nalishini turli tomonlarga burish yoki ko'z orqali ta'qib etish.

1. Tikilib qarash – odamning samimiy qiziqishini bildiradi. Misol uchun, odamning sochlariga tikilish kimdir boshqa odamning sochlarini silashga mayli borligini ifodalashi mumkin.

“Shunday kayfiyatda yurgan chog'larda u o'ziga Alimqulning tikilib-tikilib qayotganini sezar va bunga zarracha hayron qolmasdi”. [U. Hamdam: 2007, 113]

1. Bir qarab qo'yish, ko'z qirini tashlash

a) insonning haqiqiy istaklarini ko'rsatishi mumkin. Masalan, eshikka qarab qo'yish kimnidir kutayotgan ekanligi yoki ketmoqchi ekanligini, bir stakan suvga qarab qo'yish esa odamning chanqaganini anglatishi mumkin.

“Zebi xola shoshilmasdan choy ho'plarkan, devordagi mixga ilig'lik turgan dutorga qarab qo'ydi”. [O'. Hoshimov. 1975: 3]

b) Sharq xalqlarida esa bir qarab qo'yish ogohlantirish, tartibga chaqirish ma'nolarida ham faol qo'llaniladi.

“Zaynab shu holda uzoq fursat erini yelpidi va natijada ma'lum ko'rukni odatdan tashqari bir muvaffaqiyat ichida kundash nazaridan o'tkazdi: nima yumish bilandir uydan chiqq'an Kumush Otabekning yostig'i yonida qo'lig'a yelpug'ich ushlagan Zaynabka ko'z qirini tashlab o'tdi”. [A. Qodiriy, 12]

2. Ko'zga tikilish – juda kuchli va samimiy qiziqish ma'nolarini anglatadi.

“Hovliga chiqsam Shodivoy kutib turgan ekan.

– Nechchi qo'ydi? – dedi ko'zimga tikilib.

Indamadim.” [X.To'xtaboyev: 2018, 69]

4. Tikilib turish – bu shunchaki ko'z bilan qarashdan ko'proq ma'no kasb etadi, ayni paytda ko'z qorachig'i kengayishini ham o'z ichiga oladi. Tikilish jarayonida miltillashning yo'qligi qiziqish darajasining yuqoriligi bilan bog'liqdir. Uzoq muddatli tikilish tahdid, nafrat yoki kuchli muhabbat ma'nolarini ifodalashi mumkin.

“Bu gapdan keyin Hasanalining ko'zi bekka tikilgan edi, agar tundagi uyqusirash Hasanalining o'ylagan ehtimoliga to'g'ri kelsa, o'zining haligi so'zi Otabekka bir o'zgarish berishida shubha qilmas edi”. [A. Qodiriy, 198]

3. Ko'zini bir nuqtaga tikish – ixtiyorsiz ravishda ko'z qorachig'ining o'z trayektoriyasini bir nuqtaga keltirgan holda bir muddat turish. Adresat yoki adresantning diqqati boshqa narsaga qaratilganligini yoki xayol surilayotganligini bildiradi.

“Otabek bu gapni onglamadi shekillik, Hasanalining yuziga ko'tarilib qaradida, yana ko'zini bir nuqtaga tikib qoldi”. [A. Qodiriy, 10]

4. Ko'zlar bilan kuzatish – ko'zlar tabiiy ravishda harakatni kuzatib boradi. Agar biror kishi kimgadir qiziqsa, uning ko'zlari tabiiy beixtiyor bu odamga ergashadi.

“Alimardon tentaklarcha bir ehtiros vujudini yondira boshlaganini sezib, istamaygina teskari o'girildi. Lekin o'sha ondayoq zimdan uning harakatlarini kuzata boshladi. Klara ayollarga xos chiroyli harakat bilan sochini orqasiga tashlab yubordi”. [Hoshimov. 2005: 65]

5. Ko'zni biroz qisib qarash – odamning yaqinroq qarashga harakat qilayotganini anglatishi mumkin. Bu, shuningdek, odam biror narsa haqiqat yoki yo'qligini o'ylayotganini ham anglatishi mumkin. Ko'zni qisib qarash quyosh nuridan saqlanishda yuzaga keladigan shartli refleks natijasi ham bo'lishi mumkin.

“Azizxon adashganlarini aytdi. Chol uning bu gapiga uncha ishonqiramay ko'zlarini qisib gilam popugini o'ynay boshladi”. [Said Ahmad. 1976: 45]

6. Miltillash – ko'z pardalarining bir-biriga tez-tez to'qnashishi natijasida sodir bo'ladigan tabiiy jarayon. Bu holat inson kuchli stressni his qilganligining natijasi bo'lishi mumkin.

“Salti zo'r bilan o'zini bosib oldi. Ikkalasi yana – ko'zlarini miltillatib – chol bilan kampirga tikildilar”. [Cho'lpon. 2000: 1]

7. Ko'zlarni pirpiratish – qachonki yuz ifodalari bilan birga qo'llanganida takabburlikni ifodalashi mumkin. Alohida qo'llanganda nozlanish, erkalanish, beg'ubor va samimiy ko'rinishga bo'lgan maylni ifodalaydi.

“Qergash ko'zini pirpiratib, tushunmagandek, savol nazari bilan qaradi.

– Qayting, ha. Butunlay.

– Hazillashmang, Orif aka”. [Asqad Muxtor, 92]

(Izoh: ko'zini pirpiratish orqali o'zini bilmaganga olib, eshitilgan fikr-munosabatni tasdiqlab olishni maqsad qilingan.)

8. Ko'z qisib qo'yish

a) ikki kishining o'zlariga ma'lum bo'lgan umumiy mavzuni so'z qo'llamagan holda ifodalashini bildirishi mumkin.

“ – Yaxshi choy bo'libdi. – Abdulla yer ostidan qizga qarab qo'ydi.

– Папа! – dedi sekin Abdullaga qarab Sayyora. – Он да?

Tursunali aka ko'zini qisib qo'ydi-da, sekin so'radi:
– Yoqdimi?” [Umarbekov:2007, 49]

b) Maqtov

“Men Omonga: “Qoyilman, qo'ling yengil ekan”, degandek ko'zimni qisib qo'ydim”.
[G'afur G'ulom. 2004: 22]

c) Dalda berish

“Zal to'liqlana boshladi. Kimdir yo'talib ham qo'ydi. Gulchehra gapini o'ylab, birma-bir zaldagilarga qarab chiqar ekan, deraza tokchasida o'tirgan Alisherga ko'zi tusib qoldi. Alisher uning qiynalib turganini ko'rib, “gapiravering, nmadan cho'chiysiz?” degandek ko'zini qisib qo'ydi. Gulchehraga bu dalda bo'ldi. Ukasidan ko'z uzmay, sekin gapini boshladi.” [Umarbekov:2007, 81]

d) Yigit tomonidan qiz bolaga qo'llanilganida “salom”, gap otish, shilqimlik kabi ma'nolarni anglatishi mumkin.

e) Aksincha qiz bola tomonidan qo'llanilganida esa noz-karashma belgisi sifatida tushunilishi mumkin.

9. Ko'zlarni mahkam yumish – so'zlovchidan kelgan axborotga nisbatan javob reaksiyasi bo'lib, kuchli qo'rquv yoki xijolat bo'lishni anglatadi. Ayrim hollarda, hid yoki ta'mdan kuchli lazzatlanish ma'nosida ham qo'llaniladi.

10. Ko'zning namlanishi

a) odatda, bu jarayon qayg'uni ifodalaydi:

b) ko'z yoshlari haddan tashqari baxt va me'yordan ortiq kulgining natijasi bo'lishi ham mumkin.

c) kuchli g'azab va hasadning tashqi ifodasi:

“ O'tinchi ovoz chiqarmay g'o'ldiradi, ko'zlari namlandi, qira dahani osilib ketti. Uning uchun hozir Mardondan baxtli odam yo'q edi.” [Umarbekov:2012]

11. Ko'zlarni ishqalash – inson o'zini noqulay his qilganida yoki charchaganida sodir bo'lishi mumkin. Ko'zni ishqalash, shuningdek, odamning ko'zlarida biror narsa (xas, chang, linza va hokazolar) bo'lganda ham amalga oshiriladigan tabiiy fiziologik jarayondir.

“Grisha boshini sekin ichkari tortdi. Uyqusizlikdan achishgan ko'zlarini ishqalab, endi vannaxonaga kirmoqchi edi, pastdan mashinaning kuchanib gurillagani eshitildi.” [Hoshimov, 22]

12. Ko'zini lo'q qilmoq – ko'zni uzmay, indamay, bez bo'lib turishdan iborat harakat. Adresantning jig'iga tegish maqsadida qo'llaniladi.

“Tepasida terga pishgan semiz bir ayol ko'zini lo'qqaytirib turardi. Yoshini pesh qilib joyni egallamoqchi.” [A'zamov.1981:148]

13. Ko'zini olib qochish

- a) Xijolat bo'lish
- b) Uyalish
- c) Yolg'on gapirish
- d) Qo'rqish

“ – Ha, bo'ladimi? – dedi soxta mehribonchilik bilan. O'qrayganimni ko'rib, nigohimga dosh berolmay ko'zini olib qochdi, yonidagi qizlarga yuzlanib nimadir deya sayray boshladi.”[A'zamov:1981, 54]

14. Ko'zini suzmoq – ko'zlarini yarim yumgan holatda noz-ishva bilan qarash.

“...Muhayyo Javlonni ko'chada ko'rib ko'zini suzgan emish, Javlonning ta'bi tortmabdi, yo'qsa hujraga taklif qilsa kirar ekan...” [A'zamov.1981: 148]

15. Ko'zini katta-katta ochgancha qarab qolmoq – biror narsa yoki sodir bo'lgan voqea-hodisadan hayratlanishni ifodalaydi.

16. Ko'zini chaqchaytirmoq / baqraymoq – ko'zini ola-kula qilib baqrayib qarash. Odatda, jahl chiqqanda yoki g'azablenganda xuddi shunday qaraladi.

“A'zamjon bunday savolni kutmagan edi. Nima deyishini bilmay unga baqrayib qoldi. Boya “xotinim ukamga o'ynash bo'ldi” demaganida ham mayli edi. Endi shunga yarasha javob qilishi kerak.” [Qahhor. 2012: 663]

17. Ko'zini chetga olmoq – uyalish

“Abdulla uyalib ko'zini chetga oldi. “Yaxshi qilmadim, – o'yladi u. – Demak, qizi shu ekan-da? Nahotki Leningradga borsa?” U xuddi o'zi ketayotgandek, bunga ishonisi kelmadi, ayni vaqtda uning borishini istardi”[Umarbekov. 2007: 47]

18. Ko'ziga surtmoq – me'yordan ortiq darajada qadrlash, e'zozlash

“Miryoqub esa “qah-qah” solib kuldi, yerga tushgan gazetni engashib yerdan oldida, qoqib, ko'ziga surtgach, to'rt buklab cho'ntagiga soldi, so'ngra tezgina mingboshining qo'ltig'iga kirib, apil-tapil uni so'rigacha keltirib o'tqazdi.”[Cho'lpon. 2000: 85]

19. Ko'z tikmoq – madad, qo'llab-quvvatlov kutish:

“– Nima sening bu bog'ing shaharda emasmi? Hovling-chi? Sen o'zing ham qishloqda tug'ilgan bo'lsang ham shaharda yashab o'tmadingmi, shaharda ishlamadingmi? – mantiqli e'tiroz bildirganidan g'ururlanib, atrofga umidli ko'zlarini tikdi A'zam aka.” [Hamdam. 2007: 14]

20. Yalt etib qarash – kuchli hayratlanish, kutilmagan javob eshitilgandagi ruhiy holatni ifodalaydi.

“Muhayyo bir-ikki og'ir rostlaganidan dedi:

– Anvar sizni qo'yib menga intilishi sizning izzat-nafsingizga tegadi, siz buni kechirolmaysiz, hech bir qiz kechirolmaydi!

Muattar unga “balosan-ku” deganday yalt etib qaradi.” [Qahhor. 2012: 54]

21. Qovog'ini solmoq – xafa bo'lishni bildirish maqsadida qo'llaniladi.

“Kumush ko'z yumish o'rniga yostiqdand boshini uzdi va yerga tushgan ro'yamolini o'rab, o'lturdi. Uning ko'zi uyqudan qolg'an kishilarning ko'zidek qizarg'an edi. Otabek qaytib kirdi.

– Nega qo'zg'aldingiz, uxlang, – dedi. Kumush javob bermadi, qovog'i solig' edi. – Ko'zingiz qizarib ketipti, uxlay olmadingizmi?” [Qodiriy. 198]

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'z harakatlari, qarash yo'nalishi, nigohning davomiyligi va tez-tez almashinuvi shaxsning ichki holati, emotsional kechinmalari hamda kommunikativ niyatini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'z harakatlari orqali ishonch, ikkilanish, qiziqish, xavotir yoki befarqlik kabi holatlar aniqlanishi mumkin. Shuningdek, maqolada ko'z harakatlarining lingvosomatik xususiyatlari yoritilib, ularning nutq jarayonidagi o'rni ochib berildi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ko'z harakatlarini tizimli o'rganish muloqot samaradorligini oshirish, shaxslararo munosabatlarni chuqurroq anglash hamda psixolingvistik tahlillarda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar kelgusida tilshunoslik, psixologiya hamda kommunikatsiya sohalari integratsiyasida yanada keng imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlar:

1. To'liyeva Sh. I. “O'zbek tilshunosligida ko'z komponentli ayrim somatik frazemalarning paradigmatic xususiyatlari” – Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, 23-26-b.
2. Ulug'bek Hamdam, Muvozanat – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2007. 113-bet.
3. O'tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari – ziyouz.com kutubxonasi, 175-bet
4. Abdulla Qodiriy, O'tkan kunlar – ziyouz.com kutubxonasi, 12-b
5. O'tkir Hoshimov Ikki karra ikki besh – Toshkent: “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018, 69-b
6. O'tkir Hoshimov Bahor Qaytmaydi – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2005, 65-b
7. Said Ahmad Ufq Qirq besh kun – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976, 45-b
8. Cho'lpon Kecha va kunduz – Toshkent: “Sharq” nashriyot matbaa konsernining tahririyati, 2000, 18-bet
9. Asqad Muxtor, Chinor – ziyouz.com kutubxonasi, 92-bet

10. O‘lmas Umarbekov Odam bo‘lish qiyin – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007, 49-bet
11. G‘afur G‘ulom Shum bola – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004, 22-bet
12. O‘lmas Umarbekov, Oqsoqol (hikoya) –O‘zbek nasri onlayn antologiyasi, 2012
13. O‘tkir Hoshimov Tushda kechgan umrlar – zyouz.com kutubxonasi, 23-b
14. Erkin A‘zamov Otoyining tug‘ilgan yili – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981, 54-bet
15. Abdulla Qahhor Muhabbat qissa – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012, 50-bet
16. Said Ahmad Ufq trilogiya III kitob – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1976, 663-bet
17. Abdugafurovna K. S., Abdugafurovna K. O. Some Considerations in Teaching Uzbek Language Grammar //International Journal on Integrated Education. – 2020. – T. 3. – №. 9. – C. 165-168.
18. Mahmadiyor Asadov. 2026. “A BRIEF OVERVIEW OF THE HISTORY OF UZBEK TRANSLATION STUDIES”. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies* 1 (01):28-30.
19. Mavlyanov, S. (2023). O ‘zbek tili diplomatik terminlarining semantik tasnifi. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).
20. Sirojiddinov, S., & Normurodova, N. (2019). Pragmatics and Cognition: Intention and Conceptualization in Discourse. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 2888-2893.
21. Vafo, Muhayyo - Orazova, Iqbol. “ALİ ŞİR NEVÂÎ’NİN “LEYLİ VE MECNUN” MESNEVİSİNDE DİNÎ TASAVVURLARIN ‘CAN’ MERKEZLİ DEYİMLERİN OLUŞUMUNA ETKİSİ”. *Türk Kültürü ve Hacı Bektaş Veli Araştırma Dergisi*. 115 (September 1, 2025): 601-614. <https://doi.org/10.60163/tkhcbva.1614109>.
22. Turdievna, K. Z., & Tursunaliyeva, A. M. (2023). Problems of Understanding and Translating Homonyms in the Artificial Intelligence System. *INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS*, 2(5), 63-67.
23. K M. Thematic groups of lexical units in "Kutadgu bilig" Open Access journal of Science. *MedCrave*. 2 (Issue 2), P146-148